«Uzbekistan Airways» - Myunxendagi "f.re.e - Die Reise- und Freiseitmesse" sayyohlik koʻrgazmasining ishtirokchisi «Uzbekistan Airways» Germaniyaning Myunxen shahrida 19-23 fevral kunlari boʻlib oʻtayotgan “f.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse” xalqaro sayyohlik koʻrgazmasida birinchi marotaba oʻz xizmatlarini namoyish etmoqda.

«Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining yagona stendi Oʻzbekistonning Germaniyadagi elchixonasi va Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi bilan birgalikda tashkil etildi. Tadbirda «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasi vakolatxonalari bilan bir qatorda “Avrud”, “Elan Express” va “Ulysse Tour” milliy sayyohlik kompaniyalari ham oʻz xizmatlarini namoyish etmoqda. "F.re.e - Die Reise- und Freizeitmesse" - 1970-yildan beri Markaziy Yevropaning marvarid-shahri hisoblangan, Bavariya federal davlatining poytaxtida muntazam ravishda oʻtkaziladigan eng yirik sayyohlik va dam olish tadbiridir. Ekspozitsiyalarning umumiy maydoni 86 ming kvadrat metrni tashkil etib, sayohat va hordiq bozorining barcha yoʻnalishlarini qamrab oladi. Statistik maʻlumotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu tadbirga tashrif buyuruvchilarning 93 foizi oʻz sayohatlarini koʻrgazma davomida olingan maʼlumotlarga asoslanib rejalashtirishgan.

Bu yil unga 150 mingdan ortiq kishi tashrif buyurishi kutilmoqda. «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining stendida koʻrgazmaga tashrif buyuruvchilar aviakompaniyaning barcha xizmatlaridan foydalangan holda yangi yoʻnalishlar, parvozlar jadvali va geografiyasi haqida maʼlumot olishlari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining ekologik, togʻchangʻisi, tarixiy-meʼmoriy, madaniy, maʼrifiy, gastronomik va boshqa yoʻnalishlarining diqqatga sazovor joylarini oʻrganishlari mumkin. Shuningdek “F.re.e - Die Reise- und Freiseitmesse” maydoni «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasining Myunxenga yangi yoʻnalishini Yevropa Ittifoqi sayyohlari eʻtiboriga taqdim etish uchun yaxshi imkoniyat boʻldi.


ZBEKISTAN AIRWAYS
A4.527
Tyumen
Ekaterinburg
Moscow
Novosibirsk
Krasnoyarsk
Nur-Sultan
Almaty
Beijing
Urumqi
Amritsar
Delhi

Eslatib o‘tamiz, yozgi navigatsiyada «Uzbekistan Airways» Toshkent-Myunxen-Toshkent yo‘nalishida chorshanba va yakshanba kunlari haftasiga 2 marotaba muntazam qatnovlarni amalga oshira boshlaydi.

Statistikaga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan nemis sayyohlari soni avvalgi davrga nisbatan deyarli to‘rt baravarga ko‘paygan. Bunda O‘zbekiston tomonidan Germaniya fuqarolari uchun vizasiz rejimning joriy etilishi, shuningdek, “Buyuk Ipak yo‘li” bo‘ylab sayyohlik yo‘nalishi tobora ommalashib borishi muhim rol o‘ynadi.



Download PDF